



INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

ISSN 3030-3443



Volume 1. Issue 24. October, 2024



ISSN 3030 – 3443

**INTERNATIONAL JOURNAL
OF SCIENCE AND TECHNOLOGY**

International Scientific electronic journal

NANAY SHARSHARASIDAN TURISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH MASALALARI

Namozov Jo‘rabek Abduazizovich

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti dotsenti

Turg‘unova Robiya Fazliddin qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti talabasi

Annontatsiya. Maqolada Nanay sharsharasining mamlakatimiz ekoturistik salohiyatidagi o‘rni, tabiiy sharoiti, iqlimi, dorivor o‘simliklari va hayvonot dunyosi haqidagi ma‘lumot berilgan. Shuningdek, Nanay sharsharasi ekoturistik salohiyatini rivojlantirishga doir vazifalar, sharsharaga olib boruvchi yo‘llarda mavjud muammolar va ularni yechimlari taklif qilingan.

Kalit so‘zlar. Ekoturistik resurs, turizm zonasi, tog‘ yonbag‘iri, kurort, rekreatsiya, supa, landshaft.

Annotation. The article provides information about the role of Nanay waterfall in the ecotourism potential of our country, its natural conditions, climate, medicinal plants and animal world. Also, tasks related to the development of the ecotourism potential of the Nanay waterfall, existing problems on the roads leading to the waterfall and their solutions were proposed.

Keywords. ecotourism resource, tourism zone, mountainside, resort, recreation, platform, landscape.

Kirish. Nanay sharsharasi - Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani shimoli -sharqiy qismida Toshkent shahridan 100 km uzoqlikda Nanay qishlog‘i hududida joylashgan. Mazkur sharsharaning balandligi 8 metrni tashkil etib, Chotqol tog‘ tizmasidan suv oladi. Unchalik baland bo‘lishiga qaramay rekreatsiya resurslariga boy hisoblanadi. Bo‘stonliq tumani ekoturistik salohiyatini rivojlantirishda Nanay sharsharasi hududida ham samarali turizm zonachasini tashkil qilish mumkin.

Sharshara joylashgan Nanay qishlog‘i ob-havosi keskin kontinental, yozi issiq, namgarchilik atrofidagi boshqa hududlarga nisbatan yuqoriroq bo‘ladi. Yog‘in miqdori tog‘-o‘rmon zonasida 800-900 mm atrofida. Shu bois, bu yerga bahorning oxiri va yozning boshida kelish tavsiya etiladi. Biroq yoz oylarida sharshara yonida salqin havo kuzatiladi. Hattoki tog‘ yonbag‘irlarida yozda ham katta qoplamdagi muzliklar erimaganini ko‘rish mumkin.

Nanay qishlog‘i aholisining asosiy qismi bog‘dorchilik hamda chorvachilik bilan shug‘ullanadi. Bog‘dorchilik uchun tabiiy sharoit hamda chorvachilik uchun yetarlicha tog‘ yaylovlari mavjud. Bog‘dorchilikda asosan uzum yetishtirishga ixtisoslashgan. Katta hududlarda uzum plantatsiyalari tashkil etilgan Ammo, hozirgi kunga kelib Bo‘stonliq tumani ekoturistik salohiyati kengayib borayotgani sababli yerdan foydalanishda bir muncha cheklovlar mavjud. Bundan tashqari mahalliy aholining

asosiy daromadi dala hovli yoki supalarni ijaraga berish, qoramolchilik, o'rmonchilik, parrandachilik, asalarichilik va boshqa turdagi mehnat faoliyatidan iborat. Nanay qishlog'i chekka hududlarda joylashganligi uchun tabiiy gaz bilan yetarli ta'minlanmagan.

Asosiy qism. Bo'stonliq tumani tog'larining go'zal manzaralari, sof tabiatdagi toza va musaffo havosi, sayyohlarni o'ziga jalb qiladi. Bo'stonliq tumani hududidagi yirik Chimyon - Chorvoq hududlari bilan birga, Nanay sharsharasiga ham e'tibor qaratilsa shu kabi yirik ekoturistik zonani tashkil qilish mumkin.

Nanay sharsharasi nomining kelib chiqishi Zardushtiylik dini mavjud bo'lgan davr bilan bog'liq bo'lib, ma'lum bir ilohning nomiga atab qo'yilgan deyiladi. Nanay hududidagi o'simlik olamidan kelib chiqib Nanay nomi berilgan, degan taxminlar ham bor. O'zbekistonda Nanay nomi bilan ataluvchi 2 ta qishloq mavjud bo'lib, biri Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida yana biri esa Namangan viloyati hududida joylashgan. Bo'stonliq tumani Nanay qishlog'i hududida Katta Nanay va kichik Nanay sharsharasi mavjud. Katta Nanay sharsharasini Aksarsoy (Oqsarsoy) sharsharasi deb ham ataladi.

Katta Nanay sharsharasi aholi yashash manzilgohlaridan ancha ichkarida joylashgan bo'lib, sharsharaga elituvchi yo'l aholi manzilgohlaridan boshlab 13 kmni tashkil etadi. O'rtacha tezlikda piyoda yurgan kishi 13 km masofani 2 yarim yoki 3 soatlarda bosib o'tishi mumkin. Shu sababli ham piyoda borishni rejalashtirgan sayyohlar uchun ertaroq yo'lga tushish tavsiya etiladi. Yo'l asosan so'qmoli yo'llardan iborat. 3-4 km masofadan so'ng kichik Nanay sharsharasi joylashgan. O'rmon xo'jaligi po'stidan taxminan 4.5-5 km masofadan keyin Katta Nanay sharsharasiga yetib kelish mumkin. Katta Nanay sharsharasi (Aksarsoy) Aksarsoy darasida dengiz sathidan 1500 m balandlikda joylashgan. Uning balandligi 10 m dan ziyodni tashkil etadi. Masofaning uzoqligi yo'lda uchraydigan qiyinchiliklar ham vaqtni ham ko'p quvvatni talab qiladi. Ammo, sog'lig'ida muammosi bor, musaffo tog' havosidan nafas olish, ko'proq yurish tavsiya etiladigan insonlar uchun bu sharsharaga olib boruvchi yo'l ayni muddaodir. Sharsharaga yurib borishni istamagan insonlar uchun ham maxsus mashinalar yordamida xizmat ko'rsatishadi. Ular xizmat ko'rsatish evaziga 1 kishi uchun taxminan 80 ming so'm atrofida sharshara yoniga eltib qo'yishlari mumkin. Ammo, bu sharsharaga yurib borishning o'zgacha gashti bor. Sababi bu orqali haqiqiy tog' tabiati haqidagi ko'plab tasavvurlarga ega bo'lish mumkin.

Yo'l bo'ylarida tog'lardan jilg'alar (ayniqsa, may-iyun oylarida) oqib tushib, ulardan buloqlar hosil bo'ladi. Chotqol tog' tizmasining 3000 m dam baland cho'qqilarida yoz oylarida ham qor erimay turadi. Nanay qishlog'i hududida judayam ko'plab Yong'oqzorlar, Qayin va Qarag'ayzorlari uchratish mumkin. Nanay qishlog'i hududida 70 oilaga mansub 1000 dan ortiq o'simlik turlari qayd etilgan bo'lib, ulardan 200 tasi tabobatda qo'llaniladigan dorivor o'simliklar hisoblanadi. Kurortlar tashkil qilishda bu kabi dorivor o'simliklarning ko'pligi ayni muddaodir. Yo'l bo'yida iyun oylarida dorivor o'simliklardan biri rovochni uchratish mumkin. Tog' etaklari o'tloqlar

va archazorlar, ba'zi joylarda yong'oqzorlar, tog' pistasi, na'matak, olcha, zirk, do'lane va boshqa daraxt va butalar uchraydi. Daryolarning yuqori oqimi vodiylarda terak, tol, jingil, olcha kabi daraxtlar o'sadi. 2400 metr balandlikda tog' cho'lida O'zbekistonning qizil kitobiga kiritilgan Grey va Kaufman lolalari, sovunildiz va piskom piyozi uchraydi. Mahalliy aholi tomonidan qir va adirlarga ishlov berish orqali yetishtirilgan uzumlar dunyoga mashhur. Uzum plantatsiyalari asosan lalmi yer maydonlarida yetishtiriladi. Yomg'ir qor suvlariga to'yingan hosildor tuproqda mazali uzum navlari yetishtiriladi. Toza kislorodga to'yingan havoda yetilib pishgan mevalar ham kelgan sayyohlarni o'ziga chorlaydi.

Nanay qishlog'ining kislorodga boy havosining asosiy manbayi uning o'rmonlari hisoblanadi. Tog' - o'rmon landshafti shakllanishi uchun yetarli quyosh radiatsiyasi hamda namgarchilik tarkib topgan. Tekisliklarda tipik bo'z tuproq, adirlarda to'q bo'z tuproq, tog' zo'nasida esa tog' - o'rmon tuproqlari tarqalgan. Daraxtzorlar va o'simlik qoplami qalinlashib borgani sari tuproqning ham unumdorligi ortib boradi. Sababi, tog' etaklarida tuproq hosil bo'lish uchun barcha sharoitlar, namlik, harorat, o'simlik va chirindi qoplami miqdorlari bu jarayonga ijobiy ta'sir etadi. Shuning uchun ham aholining ko'p qismi unumdorligi yuqori tuproqlardan bog'dorchilikda foydalanishadi.

Sharshara aholi yashash manzilgohlaridan ancha ichkarida joylashganligi sababli yovvoyi hayvonlardan ehtiyot bo'lish uchun o'rmonga yaqin hamda yovvoyi hayvonlar ko'p joylarda belgilar o'rnatilgan. Shu sababli kech tushganda bu yerlarda harakatlanmaslik tavsiya etiladi. Ammo, Nanay qishlog'i hududida kunduzi ham o'ziga xos hayvonot olamini uchratish mumkin. Sutmizuvchilardan bo'ri, tulki, to'ng'iz, arxar va boshqa turdagi tog' echkisi, va qo'ylar quyon bo'rsiqlar yashaydi. Qishloqning shimoli - sharqida qor qoplani kuzatilganligini haqida bir necha bor xabar berilgan. Echkiemar va boshqa turdagi sudralib yuruvchilar keng tarqalgan. Bu yerda qushlardan burgut, kalxat va boshqa turdagi yirik qushlar mavjud. Ba'zi bir qushlarni ovlab hordiq chiqarish maqsadida ham foydalaniladi.

Sharshara bilan aholi yashash manzilgohlari bir biridan ancha uzoqda bo'lgani sababli, antropogen omil unchalik sezilmaydi. Qishloq aholisi tozalikka, tabiatni asrab - avaylashga katta e'tibor qaratishadi. Bu yerga may va iyun oylarida ham muzlarning erimaganiga hamda qoplama holatda yotganligini guvohi bo'lish mumkin (1-rasm).



Nanay qishlog'i tog'larida joylashgan qor qoplamasi (1-rasm).

Sharsharaga boradigan yo'llar 2014-yilda ta'mirlanganligiga qaramay, u yerga borishda bir qancha noqulayliklar mavjud. Shulardan biri sharsharaga elituvchi yo'l davomida 3 ta katta ariqlardan kechib o'tishga to'g'ri keladi. Maxsus ko'priklar o'rnatilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Yo'l bo'yiga maxsus yo'l ko'rsatuvchi belgilar bo'lmagani sababli ularni yo'l bilmagan yolg'iz sayyoh adashib qolishi hech gap emas. O'rmon atrofida qo'riqlash xizmati mavjud, ammo ular sharsharadan ancha masofa uzoqda. Sharsharaga olib boruvchi yo'llarda, yoki sharsharaga yaqin joylarda hojatxonalar, mehmonxonalar, do'konlar, maxsus xizmat ko'rsatish joylari tashkil etilsa, qulayliklar ortadi va bular orqali turizmni rivojlantirish va sayyohlar sonini oshirish imkonini yaratadi. Bu turizm zonachasidan nafaqat turizm balki, reaksiya yoki kurort hududlar sifatida ham foydalanish mumkin.

Ko'pchilik sayyohlar Nanay sharsharasini ko'rish uchun kelib, yo'l bo'yidagi supalarda dam olib, sharsharani ko'rmay ortga qaytishar ekan. Bunga noqulayliklar yo'l qiyinchiliklarini sabab qilib ko'rsatishdi. Piyoda yurib ketayotgan sayyohlarni qiyinchiliklaridan yana biri filtrlangan toza ichimlik suvi topish hisoblanadi. Sababi 13 km masofaga piyoda ketayotgan 1 ta sayyohga sayyohga kamida 2-3 litr suv kerak. Lekin bu suvni balandlikka ko'tarib borish biroz mushkul. Yo'l bo'yida esa suv olish uchun aholi manzilgohlari ham yoki biror bir do'kon ham yo'q. Ko'pchilik Nanay aholisi hamda sayyohlar sharsharadan oqib kelayotgan ariq suvlari yoki buloq suvlaridan ichimlik suvi o'rnida foydalanishga to'g'ri keladi. Biroq, bugungi kunga kelib ekologlar tomonidan ariq va buloq suvlaridan ichimlik suvi sifatida foydalanishga taqiqlar mavjud. Qolaversa yog'inlar aynan atmosferadagi turli xil chang va bakteriyalar bilan yer yuziga tushadi. Ular havo sovuganida muzlab bahor kelishi bilan eriydi va daryo, ariq va buloqlarni suv bilan ta'minlaydi. Shu sababli bugungi kunda ariq va buloq suvlaridan ichimlik suvi sifatida foydalanish ekologik talablarga javob bermaydi. O'z navbatida bu turli xil kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

1-jadval

Turizm zonachasini tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar

	Omillar	Ta'sir kuchi
	Tabiiy	8
	Tashkiliy	9
	Infrastruktura va investitsiya	6
	Siyosiy	8
	Talab va taklif	7
	Iqtisodiy	9

Manba: Muallif tomonidan tayyorlangan.

Bu yerda turizm zonasini tashkil etib, piyoda ketayotgan sayyohlar uchun ham yetarlicha sharoitlar tashkil qilinsa, bu sayyohlar sonini oshirishi bilan birga aholini ish bilan ta'minlash yoki daromadini oshirish imkonini beradi. Hozirgi kunda ham Nanay

aholisi supalarni ijaraga berish orqali ham o'z daromadlarini oshirishmoqda. Supalar esa talabga to'liq javob bermaydi. Turizm ayniqsa ekoturizm sohasini rivojlantirish uchun kerakli barcha tabiiy shart - sharoitlar yetarlicha, faqat investitsiya kiritish, va jahon standartlariga mos keladigan puxta ishlangan loyiha bo'lishi kerak. Bu loyihada tabiatning butun go'zalligini tepadan turib kuzatish imkonini beruvchi kanatkalar tashkil etilsa, loyiha samaradorligi yanada ortadi.

Xulosa. Nanay qishlog'i nafaqat maftunkor sharsharasi hamda go'zal manzarali takrorlanmas tog' tabiati bilan ham alohida ajralib turadi. Ana shunday tabiiy sharoitlar mujassam bu hududda ekoturistik zona tashkil etish uchun zarur bo'lgan barcha shart sharoitlar mavjud deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. Sayyohlar Nanay sharsharasiga shunchaki sharsharani ko'rib qaytish uchun emas, balki Nanay qishlog'i tog'laridagi takrorlanmas landshaftni ko'rish uchun ham borishadi. Ayniqsa, guruh bo'lib sayohat qilish kishiga boshqacha estetik zavq beradi. Nanay hududida o'rganilish kerak bo'lgan bir qancha ekotizimlar va ularning turlari ham keng tarqalgan hamda bu yerda turizmni rivojlantirish imkoniyatlari ko'p.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduazizovich, N. J. R. (2024, May). SHO'RKO'L KO'LINING REKREATSIYA VA TURISTIK IMKONIYATLARI. In *Konferensiyalar| Conferences* (Vol. 1, No. 11, pp. 214-216).
2. Baratov P. Mamatqulov M. "O'zbekiston tabiiy geografiyasi" 2017-y 111- bet
3. <https://arxiv.uz> > geografiya > mintaqalarda turizm rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar
4. Miraziz o'g'li, M. M., & Abduazizovich, N. J. R. (2024, May). JAHONDA EKOLOGIK TURIZM RIVOJLANISHINING REGIONAL TAHLILI. In *Konferensiyalar| Conferences* (Vol. 1, No. 11, pp. 222-226).
5. Turg'unova R.F. Bo'stonliq tumani rekreatsiya resurslari. Respublika ilmiy – amaliy konferensiya materiallari. Nukus - 2024.
6. Usmanov M. R. "Turizm geografiyasi" (o'quv uslubiy qo'llanma) - S 2015-y.
7. <https://uzbekistan.travel> > ikki nanay qishlog'ining tarixi.

1. РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ В КОМПАНИИ
<i>У.З.Турсунов</i>
4-7- page
2. ИССЛЕДОВАНИЕ ГИДРОМЕТАЛЛУРГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ КОМПЛЕКСНОГО ПЕРЕРАБОТКИ ЦИНКОВЫХ КЕКОВ ПОСЛЕ СЕРНОКИСЛОТНОГО ВЫЩЕЛАЧИВАНИЯ В УСЛОВИЯХ АО «АЛМАЛЫКСКИЙ ГМК»
<i>Валиев Х. Р, Файзуллоев С. Н, Гуломов Ж. Б</i>
8-15- page
3. ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA HARBIY TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SHAKLLARI
<i>A.X.Saxibov, A.E.Obidov</i>
16-19- page
4. MUAYYAN TIL KO'NIKMALARINI (O'QISH, YOZISH) OSHIRISHDA TURLI XIL RAQAMLI VOSITALARNING (MASALAN, ILOVALAR, ONLAYN KURSLAR, O'YIN PLATFORMALARI) SAMARADORLIGINI SOLISHTIRISH
<i>Sidikova Shohsanam Shoilhom qizi</i>
20-26- page
5. SHAXTA ATMOSFERASINI SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARI
<i>Tolibayeva Dinara, Kurbanbaeva Sarbinaz</i>
27-29- page
6. NANAY SHARSHARASIDAN TURISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH MASALALARI
<i>Namozov Jo'rabek Abduazizovich, Turg'unova Robiya Fazliddin qizi</i>
30-34- page
7. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA INGLIZ TILINI O'QITISH ORQALI KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISH PRINSIPLARI
<i>Marjona Khakimova, Ro'zmetova Muxabbat Shakirovna</i>
35-39- page
8. IKKINCHI JAHON URISHIDAN KEYIN INGLIZ ADABIYOTINING RIVOJLANISHINING ASSOSIY TENDENSIYALARI VA YO'NALISHLARI
<i>Kamola Xamidova</i>
40-46- page
9. DEVELOPING INNOVATIVE COMPETENCIES OF EDUCATORS IN HIGHER EDUCATION THROUGH META TECHNOLOGIES
<i>Doliyev Asliddin To'liqjon o'g'li</i>
47-52- page
10. COMPARING WORD FORMATION PROCESSES IN ENGLISH AND KARAKALPAK LANGUAGES
<i>Berdibaeva Baxitgul Rashid qizi</i>
53-56- page
11. DIAGNOSIS AND PREVENTION OF FUSARIOTOXICOSIS IN POULTRY FARMS
<i>Berdiev H.R., Salimov H.S</i>
57-60- page
12. AXBOROT AGENTLIK LARI ZAMONAVIY OAV TUZULMASIDA: FAOLIYAT VA XUSUSIYAT LARI VA TIPOLOGIK TAVSIFI.
<i>Yulduz Normamadova</i>
61-65- page
13. ПРИНЦИПЫ РАЗВИТИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ В 7-9 КЛАССАХ ПОСРЕДСТВОМ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА.